
Maktab o'quvchilari harbiy qismda

Yurtimiz bo'ylab "Vatanparvarlik" oyligi doirasida "Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri" shiori ostida yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirish hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining yaratilish va rivojlanish tarixi bilan tanishtirish maqsadida, Qo'shtepa tumani MMT bo'limiga qarashli umumta'lim maktabi o'quvchilari bilan SHHO 48982-harbiy qismida davra suhbatini o'tkazildi.

Tadbirdan so'ng o'quvchilar kutubxona, muzey, sport zali hamda harbiy texnikalar bilan tanishtirildi. Shuningdek tadbir davomida faxriy qoravul va harbiy xizmatchilar tomonidan jangovor chiqishlar namoyish etildi.

2024-12-23 09:40:13